

O'RTA ASR SHARQ FALSAFASINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ro'ziboyev Dostonbek Dilmurod o'g'li
O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Falsafa sohalar yo'nalishi magistranti
E-mail: muxriddinroziboyev63@gmail.com

ANNOTATSIYA

mazkur maqolada o'rta asr Sharq falsafasi to'g'risida shakillangan bilimlar sharqshunoslik tizimi va uning asosidagi zamonaviy metodologiyalar va nazariyalarning paradigmal xarakteriga alohida e'tibor berildi. Sharqning falsafiy o'ziga xos autentligini yangicha yondashuv metodologiyalar asosida ochib berishga harakat qilindi. Shuningdek, zamonaviy fikir maktablarida shakillangan sharqshunoslikning nazariy metodologik asoslari zamonaviy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda paradigmal ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Edward Said, Orientalizm, neoorientalizm, oriental sivilizatsiya, ksenofobiya, yevropasentirizm, islomofobiya, postkolonializm, svilizatsiya missiyasi, komperalistika, metodologiya, post-kolonial, post-pozitivistik, post-darvinistik.

Bugungi zamonaviy ehtiyojlar islom o'rta asr sharq falsafasini o'rganishda qo'llaniladigan an'anaviy va yangi metodologiyalarni tanqidiy tadqiq qilishni talab qiladi. Bu metodologik tadqiqot dinshunoslik, ilohiyot, falsafa, huquq va tarixni o'z ichiga olgan turli fanlar va sohalardagi xalqaro qarashlarni birlashtiradi. Ananaviy va yangi metodologiyalarni o'rganish muqobil tizimlar taqdim etadi va paradigmalarni ishlab chiqadi. Shuningdek bu tendensiya sharq falsafa tarixshunosligidagi birinchi manbalaraga asoslangan amaliy tadqiqotlar to'plamini taqdim etadi. Islom falsafasini o'rganishda uzoq vaqtidan beri shakllangan akademik an'analardagi tushuncha va tushunmovchiliklar bugungi kunda keng miqyosda tan olinmoqda. Bugungi kunda sharqshunoslar oldida orientalislarning manbalaridan foydalanish jarayonida orientalizm metodining aspektlarini anglash matn bilan komperalistik metod asosda ishslash ko'nikmasinni talab qiladi.

Deyarli yaqin vaqtgacha G'arb ijtimoiy makonida falsafani o'rganish G'arb faylasuflarini tadqiqi bilan cheklanib qoldi. Biroq, dunyo tobora integratsiyalashib globallashib, bir-biriga bog'lanib taqqozolanib borayotganligi sababli, G'arbning madaniy ustunligi shubha ostiga qo'yildi va sharqqa bo'lган e'tibor kuchaydi. Sharq ma'naviyatining tarixiy an'analarida falsafa tabiat, jamiyat, inson tafakkurining eng

umumiylar qonunlari, fundamental muammolari bugun zamonaviy yondashuvlar asosida yangidan rekonstruksiya qilinmoqda va bu jarayon yil sayin kuchaymoqda.

Hoziridan farqli XIX asrdagi g‘arblik olimlarning turli islomiy mavzularga munosabatda bo‘lgan maqsadlari yaqqol namoyon bo‘ldi; chunki ular, bir tomonidan, “islom faylasuflarining asarlari tog‘ri o‘rganilmagan, ularning mohiyati va asarlari mazmuni haqidagi bilimlarimiz to‘liq emas”¹ deb e’tirof etgan bo‘lsalar-da, keyingi o‘rinlarda ular sharq falsafasiga nisbatan polemik xulosa berishdi va islom falsafasi Aristotelga taqlid qilishdan boshqa narsa emasligini yunon intelektining tasiridan boshqa narsa emas deb qarashdi. Zamonaviy tadqiqotchilar esa asta-sekin islomiy mavzular bilan avvalgidan ko‘ra ko‘proq tanish bo‘lib, islom tafakkurining asl va o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishlari asta-sekin o‘sib bordi. Ular sharq intelektual merosi haqida ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lganlari sayin, ularning qarashlari sharq obyektiv borlig‘i bilan mos kela boshlaydi.

Zamonaviy falsafa tarixining metodologiyasi o‘rta asr sharq falsafasiga bo‘lgan munosabatda o‘z shug‘ullanayotgan mavzu va masalalar, hal qilishga urinayotgan muammolar turlari va ularni hal qilishda qo‘llaydigan metodlar bilan o‘ziga xosdir. Islom falsafasi birlik va ko‘plik muammosi, Xudo bilan dunyo o‘rtasidagi munosabat kabi masalalar bilan shug‘ullangan va bu mavzular uzoq vaqtidan beri ilohiyot olimlari o‘rtasida qizg‘in bahs va munozaralarga sabab bo‘lgan.² Aynan o‘rta asr sharq falsafasi fundamental muammolari bugun yangi rakursda bilvosita komentatrlar bilan emas balki bevosa birinchi manba manskriptlar bilan ishslash ehtiyoji borligi metodologik yechim uchun muhim.

Shunday qilib, sharq olami o‘zining ijtimoiy sharoitlari va ijtimoiy tamoyillariga mos falsafaga ega bo‘lishi uchun yangi paradigmalar vositasida o‘ziga qarashi o‘zini tadqiq etishni boshlashi kerak. Bugun o‘rta asr sharq falsafasining mohiyati nimadan iborat ekanligi, faqat uning asosiy g‘oya va tamoyillarini keng muhokama qilish va tahlil qilish bilan o‘z yechimini topmoqda.

XIX asr o‘rtalariga qadar Sharqda ham, G‘arbda ham islom falsafasini to‘liq va tizimli o‘rganishga oid hech qanday misolni ko‘rsata olmaymiz. Buning sababi shundaki, G‘arb olimi Sharq bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishga e’tiborini qaratganda, u asosan madaniy jihatga emas, balki iqtisodiy yoki siyosiy jihatlarga pardigma sifatida e’tibor qaratgan. Agar XVIII asr yoki XIX asrning boshlarida bunday madaniyatshunoslik holatlariga duch kelsak, u asosan lotin manbalariga asoslangan. Sharqning o‘ziga kelsak, ular bu davrda iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklarda shunchalik adashganki, ular o‘zlarining qadimiy madaniyatini saqlab qolish yoki islom

¹ G. Tennemann, Manuel de l’ histoire de la philosophic (French translation by V. Cousin), T. I, pp.358 359, Paris 1839.

² Madkour, La place d’al-Farabi, p.46 et suivre.

merosini jonlantirishdan manfaatdor emas edilar.¹ Ammo bugun islom olamiga turfa istalmagan loyixalar tiqishtirlgan bo‘lsa ham o‘zlikni anglash va uni talqin qilish tendensiyasi yaxshi rivoj topmoqda.

Uzoq vaqt davom etgan sharqshunoslikdagi gegemonlik g‘arba sharqning sharqshunoslari ijodiga ta’sir o‘tkazish imkonini bergan. Natija esa bugungi neorientalistlar avlodining shakillanishiga sabab bo‘ldi. Shunday bo‘lsa ham Sharq olimlari ularning ko‘plab qarashlarini qabul qildilar, ko‘pgina matnlarini tarjima qildilar va ular ochgan yo‘ldan borib, Sharq madaniyati shon-shuhratini, yorqinligini tiklashda ularga sherik bo‘ldilar. Ular, shuningdek, G‘arb sharqshunoslari tomonidan to‘liqsiz qoldirilgan narsalarni tugatdilar yoki turli mavzularni ko‘rib chiqishda qolgan bo‘shliqlarni to‘ldirdilar. Bu hissalar, garchi har bir holatda kichik bo‘lsada, keng doirada tarqaldi, shuning uchun islom madaniyatining hech bir jihat e’tibordan chetda qolmadi. Hozirgacha bajarilgan ishlar faqat o‘sishi va kengayishi kerak bo‘lgan sa’y-harakatlarning boshlanishidir.

Zamonaviy sharshunoslikda shu paytgacha bosib o‘tgan yo‘limizni davom ettirishimiz va insoniyat intellektual tarixi zanjiridagi ana shu yashirin halqani to‘liq olib, uni o‘z o‘rniga qo‘yishini maqsad qilganmiz. Bu vazifani amalga oshirish uchun hozirgacha sharqshunoslar muhim hissa qo‘shgan va katta kuch sarflamoqdalar.

Sharqshunoslik tadqiqot sohasi juda keng va tadqiqot uchun son-sanoqsiz imkoniyatlari mavjud. Bugungi sharqshunoslarning birinchi vazifasi Islom faylasuflarining asarlarini to‘plash va nashr etish; shu kungacha qo‘lyozma sifatida saqlanib qolgan yoki qoniqarsiz shaklda nashr etilgan asarlarni qaytadan metodologik tahlildan o‘tkazib akademik doiraga yetkazsh. Buni aytayotganimiz, faylasuf va olimlarimiz asarlarini asli qaysi tilda yozilgan bo‘lsa, o‘sha tilda o‘rganmas ekanmiz, ta’limotlarining mohiyatini, o‘zagini tushuna olmaymiz.

Yigirmanchi asrning so‘ngi o‘n yilliklarida va XXI asrning boshida bir qator G‘arbdagi islom falsafasi tarixi va o‘rganish usullarida yangi “bob” ning yozilishiga sabab bo‘lgan voqealar sodir bo‘ldi. Bu davrda Korbin, Izutsu, Nasr va boshqalarning oldingi sa’y-harakatlari natijasida keyinchalik islom falsafasi G‘arbdagi talabalarning butunlay yangi avlodi uchun qiziqish mavzusiga aylandi. Yangi sharqshunoslarning sifat jihatdan va metodologik paradigmal farqli avlodi shakillandi.

Qolaversa, bu o‘n yilliklar yevropa tilida ijod qilgan islom falsafasi bo‘yicha musulmon olimlari soni keskin ko‘paydi. Muhsin Mahdiy, Fazlur Rahmon, Jawad va Nasr kabi bu shaxslardan ba’zilari G‘arb universitetlarida dars berib, ko‘plab musulmon va g‘ayrimusulmon talabalarni tayyorlaganlar. Naqib al-Attas kabilar boshqa islom olamiga qaytdilar, lekin asosan ingliz tilida yozdilar. Bundan tashqari,

¹ <https://www.al-islam.org/person/ibrahim-bayyumi-madkour>

bir qancha g‘arblik talabalar falsafa va unga bog‘liq fanlarni o‘rganish uchun bir muddat islom olamiga borgan va Herman Landolt, Jeyms Morris, Uilyam Chitik va Jon Kuper kabi ba’zilari umuman islom tafakkuri va islom falsafasi bo‘yicha taniqli olim bo‘lishga erishishdi. Darhaqiqat, G‘arbda islom falsafasida bular bir qancha keksa musulmon olimlari, darajasi, Husayn Ziyoiy va Mehdi Aminrazavi kabi keyingi avlodlarning katta faoliyati islom olamining o‘zida ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Bugungi kunda arab dunyosi, Turkiya, Eron, Pokiston, Indoneziya, Malayziya va boshqa musulmon davlatlaridan ko‘plab talabalar G‘arbganana shunday olimlardan tahsil olish uchun kelishmoqda, bu jarayonda MakGill universiteti ishi ayniqsa e’tiborga molik. yashash G‘arbdagi islom falsafasidagi faoliyat islom olamining o‘zida islom falsafasi hayoti bilan chambachas bog‘liq bo‘ldi. Natijada G‘arbda islom falsafasini o‘rganish sohasi yigirmanchi asrning dastlabki so‘ngi o‘n yilliklariga qaraganda ancha kengroq sohaga aylandi.¹

Bugungi kunda hali xam orientalizm tendensiyasi kuchliligi butun bir sharq tarixiga munosabatda saqlanib qolgan. Bunga asosiy muammo sifatida uning sharqqa metodologik yondashuvning nokompetent va o‘ta mafkuralashganida namoyon bo‘ladi. Va g‘arbgan islom sharq merosi va bugungi ijtimoiy qiyofasi to‘g‘risida ma’lumot berarkanlar sharq haqida g‘oyalarni yoki qarashlarni emas balki aksincha g‘arbliklar ko‘rishi va bilishi kerak bo‘lgan shaklda tasvirlaydilar.

Zamonaviy dunyoda, bir jihatdan aksari olimlar “sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nazariyasiga tayanib apokalaptik qarashlarni oshirgan holda “sharqona kelib chiqishga” ega bo‘lgan kishilar orasidan “dushman obrazini” izlayotgan hamda shunga yondosh tarzda “sharqliklar”ga nisbatan ksenofobiya (begona odam va begona madaniyatdan cho‘chish) tendensiyasi avj olayotgan bir paytda boshqa tomondan esa “sharqona kelib chiqishga” ega bo‘lgan kishilarning “g‘arb ommaviy madaniyati”ga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish kuzatilmoxda. Bu tendensiya siyosiy mifologiya shaklida bugun rivojlanmoqda. Ayni masalalar tadqiqi bevosita “oriyentalizm”ga oid tadqiqotlar doirasiga bugungi kunda ham dolzarb xusuiyat kasb etmoqda.

Falsafa tarixi fan sohalarida muayyan oriyentalistik dunyoqarash va tafakkur tarzi hamda ma’lum oriyentistik metodlogiya mavjud ekanligini bugungi tadqiqotlar natijasida ma’lum bo‘lmoqda. Edvard Said, Vael Halaq, Anvar Abdul-Malik, Tibavi, Ziyoruddin Sardor singari yetakchi tadqiqotchilarning post-koloniyal davriga oid tadqiqotlarida oriyentalizm bir paytlar imperialistik hamda neo-imperialistik loyihalarning mafkuraviy asosi vazifasini o‘tagan hamda hozirda ham shu vazifani bajarayotgan o‘ziga hos dunyoqarash, tafakkur tarzi, ta’limotlar tizimi sifatida qarab

¹ <https://sunypress.edu/content/download/451641/5493248/>

chiqilmoqda. Bugun ham orientalizm shu xarakter asosida saqlanib qolmoqda balki u yanayam keng qamrovda ijtimoiy kompleksga singib bormoqda.

Zamonaviy tadqiqotchilar o‘z oldilariga oriyentalizmnning post-kolonial, post-pozitivistik va post-darvinistik tadqiqotlardagi tanqidiy tahlili vositasida xalqaro munosabatlar tarixini obyektiv yoritishni, yuzaga chiqarishni maqsad qilib qo‘yanlar. Oriyentalizm tushunchasi orqali tanqid qilinayotgan mafkuraviy va siyosiy, falsafa tarixshunosligidagi masalalarni bugungi zamonaviy fan xususan, ijtimoiy-gumanitar sohalar tushib qolgan murakkab vaziyatdan chiqish yo‘llarini izlashga bo‘lgan urinish sifatida ham ko‘rib chiqilyapti.

XULOSA

Bugungi zamonaviy sharqshunoslik tadqiqot metodlari aynan sharqning o‘rganilishidagi asosiy xususiyatlarni ochib beradi. G‘arb sharqshunoslikning maktablarida akademik va orientalizm yo‘nalishlari uchraydi. Lekin g‘arbdagi sharqshunoslik maktablarida Edvard Said tanqid qilgan Orientalizm oqimi keng tarqalgan. Xususan bugungi dunyodagi siyosiy-iqtisodiy gegemon bo‘lgan Amerika universitetlaridagi tadqiqotlarda haligacha orientalizm metodologiyasi hukmronlik qilmoqta. Ayni damda bu yerda Orientalizm bilan bilan siyosiy gegemonlik o‘rtasidagi aloqalar ham qayd etilgan. Albatta bu sharq falsafasiga bo‘lgan munosabatda izsiz ketmaydi.¹ Zamonviy g‘arbning orientalizmdan paradigmal asosni olgan metodlari va ularning islam bo‘yicha mutaxasislarining qarashlari G‘arb siyosiy elitasining musulmon Sharqiga bo‘lgan munosabatlariga aniqlik berishda davom etmoqda. Ayni o‘rinda ular o‘zlarining ustunliklariga mag‘rurlik bilan ishonayotganliklari yoki mavjud qotib qolgan standartlarni o‘zgartirish va yangilashga intilayotganliklarini aniq tendensiyalarda ko‘rish murakabligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Edward Said, Orientalism, New York: Vintage Books, 2003, 9.10.
2. https://www.academia.edu/36621637/orientalism_and_western_academia.
3. <https://sunypress.edu/content/download/451641/5493248/>
4. <https://www.al-islam.org/person/ibrahim-bayyumi-madkour>
5. Madkour, La place d’al-Farabi, p.46 et suivre.
6. G. Tennemann, Manuel de l’ histoire de la philosophic (French translation by V. Cousin), T. I, pp.358 359, Paris 1839.

¹https://www.academia.edu/36621637/ORIENTALISM_AND_WESTERN_ACADEMIA